

## RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA YOLG‘ON AXBOROT TARQATGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK: MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI

**Raimova Diyora Chori qizi**

**Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20793141>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi O‘zbekiston Respublikasida yolg‘on axborot tarqatganlik uchun belgilangan huquqiy javobgarlikning mazmun-mohiyati hamda uni qo‘llash bilan bog‘liq ayrim nazariy va amaliy masalalar tadqiq etilgan. Tadqiqotda axborot erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari, shaxsning sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sinini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yolg‘on axborot tarqatish va tuhmat tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari, ularni o‘zaro farqlash mezonlari hamda huquqbuzarlik tarkibini aniqlashda lingvistik va psixolingvistik ekspertizaning ahamiyati yoritilgan. Tezisdagi so‘z erkinligini ta‘minlash va shaxsiy nomoddiy huquqlarni himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zamonaviy axborot makonidagi dolzarb huquqiy masalalardan biri ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** yolg‘on axborot, so‘z erkinligi, sha‘n va qadr-qimmat, ishchanlik obro‘si, obro‘sizlantirish, kamsitish, tuhmat, huquqiy javobgarlik, axborot huquqi, sud amaliyoti.

**Аннотация:** В данной статье исследуются сущность и содержание юридической ответственности за распространение ложной информации в Республике Узбекистан, а также отдельные теоретические и практические вопросы её применения. Анализируются конституционные гарантии свободы информации и правовые механизмы защиты чести, достоинства и деловой репутации личности. Кроме того, раскрываются особенности понятий распространения ложной информации и клеветы, критерии их разграничения, а также значение лингвистической и психолингвистической экспертизы при установлении состава правонарушения. Обосновывается, что обеспечение баланса между свободой слова и защитой личных неимущественных прав является одной из актуальных правовых проблем современного информационного пространства.

**Ключевые слова:** ложная информация, свобода слова, честь и достоинство, деловая репутация, дискредитация, унижение, клевета, юридическая ответственность, информационное право, судебная практика.

**Abstract:** This paper examines the essence and legal nature of liability for the dissemination of false information in the Republic of Uzbekistan, as well as certain theoretical and practical issues related to its application. The study analyzes the constitutional guarantees of freedom of information and the legal mechanisms aimed at protecting an individual's honor, dignity, and business reputation. It also explores the specific features of false information and defamation, the criteria for distinguishing between these concepts, and the significance of linguistic and psycholinguistic expertise in determining the elements of the offense. The paper argues that maintaining a balance between freedom of expression and the protection of personal non-property rights remains one of the most pressing legal challenges in the modern information environment.

**Keywords:** false information, freedom of expression, honor and dignity, business reputation, discrediting, humiliation, defamation, legal liability, information law, judicial practice.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi har bir shaxsga axborotni erkin izlash, olish va tarqatish huquqini kafolatlaydi. Ushbu konstitutsiyaviy norma demokratik jamiyatning muhim tamoyillaridan biri bo‘lgan fikr va axborot erkinligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur huquq mutlaq hisoblanmaydi va uni amalga oshirish jarayonida boshqa shaxslarning sha‘ni, qadr-qimmatini, ishchanlik obro‘si hamda jamiyat manfaatlariga putur yetkazmaslik talabi mavjud.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yolg‘on ma‘lumotlarning ommaviy tarqalish xavfi ortib bormoqda. Shu sababli 2020-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–658-son Qonun bilan Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, yolg‘on axborot tarqatganlik uchun alohida javobgarlik choralari belgilandi. Mazkur o‘zgartirishlar fuqarolarning axborot erkinligini cheklash emas, balki axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va boshqalarning huquqlarini himoya qilish maqsadini ko‘zlaydi. Biroq mazkur normalarni qo‘llash amaliyotida bir qator munozarali masalalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, yolg‘on axborot natijasida shaxsning qadr-qimmatini kamsitilgani yoki obro‘sizlantirilganini aniqlashning aniq mezonlari qonunchilikda belgilanmagan. Bir qarashda bu huquqiy noaniqlikdek tuyuladi. Boshqa tomondan esa, inson sha‘ni va obro‘sigacha tajovuz qilish shakllari nihoyatda xilma-xil bo‘lgani sababli ular uchun yagona va qat‘iy mezon ishlab chiqish amalda murakkab hisoblanadi. Shu sababli har bir holat individual tarzda baholanadi va nizoning mohiyati sud tomonidan aniqlanadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, yolg‘on axborot oqibatida o‘zini kamsitilgan yoki obro‘sizlantirilgan deb hisoblagan shaxsning o‘zi sudga murojaat qilishi lozim. Faqat shundan keyingina huquqiy mexanizm ishga tushadi. Sud esa ayblanuvchi tomonidan ishlatilgan ibora yoki ma‘lumotlarning haqiqatan ham sha‘n va qadr-qimmatga putur yetkazuvchi xususiyatga ega ekanligini isbotlashi kerak. Bunday hollarda lingvistik va psixolingvistik ekspertizalar tayinlanib, bahsli axborot mazmuni, uning semantik ma‘nosi, qo‘llanish konteksti va shaxsga ta‘siri batafsil tahlil qilinadi.

Qonunchilikka ko‘ra, yolg‘on axborot deganda haqiqatga mos kelmaydigan ma‘lumotlar tushuniladi. Biroq har qanday noto‘g‘ri ma‘lumot ham javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Axborot shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki uning obro‘sigacha putur yetkazuvchi xususiyatga ega bo‘lishi lozim. Bunday holatda ma‘lumot uyatsiz shaklda ifodalangan bo‘lishi, ya‘ni jamiyat tomonidan e‘tirof etilgan axloqiy va muomala qoidalariga zid tarzda shaxsga salbiy baho berilishi talab etiladi. Shuningdek, ma‘lumotni tarqatish tushunchasiga ham alohida e‘tibor qaratish zarur. Shaxsning sha‘ni va obro‘sigacha putur yetkazuvchi ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish, internet tarmoqlarida joylashtirish, xizmat tavsifnomalarida aks ettirish, omma oldida bayon etish, mansabdor shaxslarga yozilgan murojaatlarda ko‘rsatish yoki kamida bir nechta shaxslarga yetkazish axborotni tarqatish deb baholanadi. Aksincha, bunday ma‘lumotlarni faqat o‘ziga nisbatan aytilgan shaxsning o‘ziga ma‘lum qilish tarqatish sifatida e‘tirof etilmaydi.

Yolg‘on axborot tarqatish va tuhmat o‘rtasidagi farq ham huquqiy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Tuhmatda aybdor shaxs tarqatayotgan ma‘lumotning yolg‘on ekanligini oldindan biladi va boshqa shaxsni obro‘sizlantirish maqsadida ataylab uydirma ma‘lumotlarni tarqatadi. Uydirma esa amalda mavjud bo‘lmagan yoki atayin soxtalashtirilgan hodisalardan iborat bo‘ladi. Yolg‘on axborot tarqatishda esa haqiqatga mos kelmaydigan ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, har doim ham uydirma yaratish yoki qasddan obro‘sizlantirish maqsadi bo‘lishi shart emas. Aynan shu jihat mazkur ikki huquqbuzarlikni bir-biridan ajratib turadi.

Demak, yolgʻon axborot tarqatish uchun javobgarlikni belgilash zamonaviy axborot makonida shaxs huquqlarini himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Biroq ushbu normalarni qoʻllashda soʻz erkinligini asossiz ravishda cheklash xavfini ham eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi. Shu bois sud amaliyotida har bir ishning barcha holatlarini chuqur tahlil qilish, ekspertiza xulosalariga tayanish hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari bilan boshqa shaxslarning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish manfaatlari oʻrtasida adolatli muvozanatni taʼminlash zarur.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
3. Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
4. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda OʻRQ–658-son “Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi Qonuni.
5. Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Qonuni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi.
6. Oʻzbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi Qonuni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining shaʼn, qadr-qimmat va ishchanlik obroʻsini himoya qilishga oid qarorlari va sud amaliyoti materiallari.
8. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
9. Rustambayev M.X. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.
10. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. Inson huquqlari va axborot erkinligi masalalari. – Toshkent: TDYU, 2020.
11. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
12. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti. – <https://sud.uz>